



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 5 - may

204-8-109-Q/22

Angor tuman hokimligi

**Surxondaryo viloyat hokimining 2022 yil “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
“Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha
chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-apreldagi PQ-214-son qarori ijrosini ta‘minlash
haqida”**

283-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida

Surxondaryo viloyatida kasanachilikni rivojlantirish orqali ishsiz aholi, ayniqsa, xotin-qizlar, mehnatga layoqatli nogironligi bo‘lgan shaxslarning ish bilan bandligiga ko‘maklashish, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni yanada kengaytirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Surxondaryo viloyat hokimining 2022 yil “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-apreldagi PQ-214-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida” 283-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyat hokimining mazkur qarori bilan 2022-yil 1-iyuldan 2025yil 1-yanvarga qadar:

kasanachilarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i kasanachilikdan olinadigan jami daromadni 50 foizga, biroq hisobot davri (bir oy)da ko‘pi bilan bir million so‘mgacha kamaytirgan holda hisoblanishi;

kasanachilar ijtimoiy soliq to‘lovini o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun belgilangan tartibda amalga oshirilishi;

Jamoat ishlari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ilovadagi olis va chekka hududlardagi mahallalarda kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlik subyektlariga har bir kasanachining dastlabki uch oy davomidagi kasanachilik faoliyati uchun bir oylik o‘rtacha daromadi miqdorida bir martalik subsidiya ajratilishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Mamayusupov), tuman Bandlik bo‘limi (E.Ro‘ziev) joriy yilning 5-mayiga qadar har bir hudud uchun alohida kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta‘minlashga oid chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish va ijro uchun mas‘ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Mamayusupov zimmasiga yuklansin.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV